



OAV TILINING LISONIY MUAMMOLARI: ABSTRAKSIONIZM, PLEONAZM, TAVTALOGIYA

Ataboyeva Hojarbibi : erkin tadqiqotchi

Orcid: 0009-0007-9724-1773

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda OAV lari bosma nashrlaridagi bir qancha lisoniy muammolar: abstraksionizm, pleonazm, tavtalogiya haqida nazariy ma'lumotlar va ularning qo'llanilish tartiblari haqida fikrlar keltirilgan, fikrlar esa misollar bilan dalillangan.

Kalit so 'zlar: Abstraksionizm, pleonazm, tavtalogiya, frazeologik birliklar, analitik janrlar, leksik-affiksal pleonazm, perissologiya, makrologiya.

Kirish. OAV vositalari bugungi kunda jadallahib, asosiy urg'u lisoniy xatoliklarga emas, aksincha axborotning tezligiga va ommaning e'tiborini tortishiga bo'lgan qiziqishga aylanib bormoqda. Internet , axboratni tezlik bilan tashuvchi turli ishtimoiy tarmoqlar kitobxonlar safini kamaytirib, insonlarning lisoniy xatoliklarga bilib turub ko'z yumishga olib kelmoqda. Jamiyat ziyorilari bu kabi xatoliklarni oldini olish uchun kurashishi, kelajak avlod esa lisoniy muammolarga jiddiy e'tibor berib, xalqimizning obro 'si sifatida qarashi lozim.

"Biz o'z oldimizga jamiyatimizning yangi qiyofasini yaratish, Yangi O'zbekistonni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida qo'ydik". Prezidentimizning mana shu aniq maqsadli, xalqimizning farovon hayoti yo'lida ezgu harakatlar bilan yo'g'rilgan gaplarini eslaganda, har bir davlat xizmatchisi o'z xizmat vazifasiga mas'uliyat bilan yondashishi shartligi anglashiladi.

Gazeta tiliga xos belgilari sifatida K.Yusupov, A.Boboyeva, A.Abdusaidov quyidagilarni ko'rsatishgan:

1. Gazeta tili yozma adabiy tildir. U o'ziga xos lingvistik belgilarga ega.
2. GAZETADA barcha vazifaviy uslublarga oid materiallar bosiladi. Ayrim materiallarda ular qorishiq holda keladi. Bu gazeta tilining o'ziga xos xususiyatlaridan hisoblanadi. Boshqa vazifaviy uslublarga doir materiallar (masalan., she'r, hikoya, badiiy asardan parchalar, farmon, qaror kabilar), agar gazeta materiallariga singdirilmagan bo'lsa, o'z uslublari doirasida o'rganilishi lozim, ya'ni u gazeta tiliga aloqador bo'lmaydi.
3. Gazeta materiallari uslubi va ifodasi jihatidan farqlanadi. Xabar, boshmaqola, korrespondensiya, hisobot, sharh kabilar sofadabiy tilda yozilsa, lavha, ocherk, ochiqxat, reportaj, tanqidymaqola, felyeton kabilar badiiy uslubga



xos elementlardan keng foydalaniladi. Bu janrlarda ba'zan o'z o'rni bilan sheva elementlari ham ishlataladi.

4. Gazeta tili badiiy, so'zlashuv uslublari tiliga yaqin turadi, ilmiy, rasmiy uslublar tilidan farq qiladi.

5. Gazeta tili uchun standart (andoza) va shtamp (qolip)lardan foydalanish xarakterlidir.

6. Gazeta tilining o'ziga xos xususiyati uning informativlik (axborot berish), tashkilotchilik, targ'ibot va ta'sirchanlik kabi vazifalaridan kelib chiqadi. Til vositalaridan foydalanishda gazeta tiliga xos ana shu xususiyatlar hisobga olinadi.

7. Gazeta tilida ekspressivlik o'ziga xos tarzda ifodalanadi. Ta'sirchanlikni ta'minlashda ommaviylik, obrazlilik, emotSIONALLIK va ekspressivlik, aniqlik va konkretlik, ixchamlilik, munoza-realilik kabilalar alohida e'tiborga olinadi.

8. Gazeta tili namunaviy til sifatida nutq madaniyatini oshirish, adabiy normani targ'ib etishda o'ziga xos ko'zgu vazifasini bajaradi. Undagi ayrim kamchiliklar aniqlanib, gazeta tilining holatiga va til taraqqiyotidagi o'zgarishlarga tegishlicha baho berib boriladi.

Asosiy qism. Gazeta yoki jurnallarda berilgan maqolalarda har doim ham to'g'ri va lisoniy qoidalarga mos ravishda maqolalar berilmaydi. Maqolalarda har doim kuzatilishi mumkin bo'lgan ba'zi bir kamchiliklar ko'plab uchraydi. Masalan , abstraksionizm, pleonzm, tavtagoliya kabi. Yoki yuqorida takidlaganimizdagidek, lingvostistik tamoyillar va paremiologik tamoyillar buzilishi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin, albatta.

Bulardan biri abstraksionizm yani, uzun jumlalardan foydalanishdir. Tadqiqotchilarning fikricha, gazeta jumlalari o'rtacha 8-14 so'zdan iborat bo'lgandagina o'quvchi tomonidan yaxshi o'zlashtiriladi. Qolaversa, dunyoning yetakchi media-ekspertlari gazeta tilida ko'proq sodda gaplardan foydalanishni maslahat berishadi. Biroq aksariyat nashrlarimiz uchun asosan qo'shma va murakkab-qo'shma gaplarni qo'llash uslubi xosdir. Masalan, "Xalq so'zi" gazetasida berilgan "O'zini oqlagan taraqqiyot yo'li" sarlavhani maqolada (18.09.2015) jami 82 ta gap ishtirok etgan bo'lib, ulardan 8 tasigina sodda, qolgan 74 tasi qo'shma va murakkab gaplardir¹. Faqat sodda gaplardan iborat maqolalar ham bor, albatta. Masalan , "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 2023-yil 27-yanvar sonida nashrga chiqqan Shuhrat Azizovning "Qishlarida shivirlar bahor" nomli maqolasida faqat sodda gaplardan foydalanilgan.

[¹, "Xalq so'zi". O'zini oqlagan taraqqiyot yo'li .18//.09//2015]

[²Shuhrat Azizov. "Qishlarida shivirlar bahor" ."O'zbekiston adabiyoti va san'ati" . 2023// 27//4.]



Gazeta va jurnallardagi maqolalarda berilgan murakkab gaplar har doim ham to‘g‘ri qo‘llanmasligi mumkin. Chunki juda ko‘p murakkab gaplardan tashkil topgan matn kishini charchatadi, zerikish va matnni o‘qishga bo‘lgan qiziqishni kamaytiradi. Sodda gaplardan iborat matn esa axborotni tez qabul qilishimiz va fikriy toliqishlarning kamayishiga olib keladi. Murakkab gaplardan iborat matnda ham sodda gap ko‘proq keltirilgan matnda ham uslub katta ahamiyatga ega. Chunki har bir uslubning o‘z talablari borligi, uni bajarish kerakli muhim , albatta.

“Sharq yulduzi” jurnalining 2021-yil 8-sonida Aysha Matniyozovaning “Hayotga mehrni aritmas ne’mat” nomli maqolasi nashr qilingan. Maqolada murakkab gaplardan tashqari yana qismlari uyushgan sodda gaplar ham bir qancha o‘rinlarda qo‘llangan.

Misol uchun , ushbu jumlanı tahlil qilsak :

“Shunga muvofiq ravishda jahon adabiyotining eng sara na’munalarini o‘zbek tiliga tarjima qilish bo‘yicha davlat buyurtmalari berish, ularni ko‘p nusxada , sifatli chop etish va moliyalashtirish tizimini yo‘lga qo‘yish, kitob tarqatish tizimini yanada rivojlantirish va kitob mahsulotlarining narxini shakllantirish va sotish bo‘yicha aniq mehanizmlarni ishlab chiqish choralarini belgilangani, axborot-kutubxona faoliyatini kuchaytirish, ta’lim muassasalarini axborot-resurs markazlarining kutubxona fondlari, kutubxonalar, tashkilot va muassasalarning “Ma’naviyat xonalari” ni o‘quv uslubiy adabiyotlar, adabiy-badiiy, ma’rifiy va ilmiy-ommabop kitoblar bilan boyitish , ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor qaratilayotgani barchamiz uchun katta imkoniyat ekanligini unutmasligimiz lozim.”³

Bu o‘rinda nafaqat gapning murakkab ekanligi balki uzun jumlalarning ko‘p ishlatilganligi ham nazarda tutilmoqda. Jumlagaga e’tibor qaratadigan bo‘lsak so‘zlar kishini fikrini biroz chalg‘itadi, oxirgi gapni o‘qib tugatguncha boshida nima o‘qiganimiz esimizdan chiqadi. Chunki barcha so‘zlar bir-biriga uyg ‘un tarzda qo‘llanmoqda, bu esa manoni emas faqat so‘zlar oxiridagi oxangni his qilishimizni ta’minlaydi. Fikrimcha , jumlada gapni ikkitaga ajratish lozim edi, har bir gapga mos gap bo‘laklari to‘g‘ri joylansa maqsadga muvofiq bo‘lardi. Yoki shu maqoladagi yana bitta jumlanı tahlil etsak: “Milliy tiklanishdan- milliy yuksalish tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘yayotgan yurtimizda ezgu qadriyat va ananalarni qaror toptirish, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy-inteluktual salohiyati, ongu-tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, ona Vatanni, millati,

³Aysha Matniyozova“Hayotga mehrni aritmas ne’mat”. “Sharq yulduzi” .2021// 8-soni



xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg ‘usi yuksak bo‘lgan barkamol shaxsni tarbiyalashda kitobxonlik madaniyatini oshirish alohida ahamiyatga ega.” Bu jumlada ham xuddi shu noqulaylikni ko‘rish mumkin. Matn qanchalik sodda va murrakab bo‘limgan gaplardan tuzilgan bo‘lsa shunchalik mushtariylarga manzur bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligida "Gazeta tili", "gazeta janrlari"ning belgilab berilganligini, janrlar tasnidagi ba’zi turli xilliklarga qaramasdan, bu sohaga bir muncha aniqliklar kiritilganligini alohida ta’kidlash lozim.

A.Boboyeva "gazeta janrlari" mavjudligini tan olgan holda, axborot janrini ajratib ko‘rsatadi. Shuningdek, olimaning felyeton va ocherkka nisbatan ishlatgan terminlari ham ("ijtimoiy-publisistik", "badiiy-publisistik") diqqatni tortadi³¹. Keyingi paytlarda o‘zbek tilshunosligida "gazeta tili", "gazeta uslubi", "gazeta janrlari" tushunchalari tobora mustahкам o‘rin egallamoqda. Shu o‘rinda abstraksionizm yana bir salbiy holat – tavtologiyani vujudga keltiradi. "Tavtologiya" atamasi rus tiliga antik davrdan kelgan. Qadimgi yunonlar "xuddi shu narsa aytilgan" vaziyatni "tautologeo" deb atashgan. Bu uning so‘zma-so‘z tarjimasi. Antik davrda perissologiya – “sinonimlar yoki bir xil ma’nodagi boshqa so‘zlarni takrorlash”, va makrologiya – “nutqda keraksiz tushuntirishlarning mavjudligi”. Zamonaliv fan bu tushunchalarni baham ko‘rmaydi va ularning har birini tavtologiya deb ataydi

Tavtologiya (yun. tautologia) — bir fikrni, mazmunni boshqa so‘z yoki so‘zlar (so‘z birikmasi) bilan takroran ortiqcha ishlatish, so‘zni ortiqcha takrorlash. Masalan, chin haqiqat, gap gapirmoq, butunlay va to‘laligicha kabi. Tavtologiya tushunchasi pleonazm tushunchasi bilan bog‘liq; ba’zan tavtalogiyani pleonazmning bir ko‘rinishi deb hisoblashadi. Aslida ular bir xil hodisa emas. Tavtologiya pleonazmdan farqli o‘laroq, nutq hodisasi hisoblanib, til tizimi va me’yori doirasiga kirmaydi. U, odatda, so‘zlovchining mantiqan va til jihatdan yetarli darajada savodxon emasligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham fransuz tilshunosi Sh. Balli uni nuqsonli pleonazm deb atagan edi. Uslubiy g‘alizlik natijasi bo‘lmay, muayyan uslubiy vosita sifatida qo‘llanganda, tavtologiya nutqning emotSIONAL ta’sirchanligini oshiradi, lekin ilmiy va rasmiy uslublarda tavtologiyaga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Mantiqda o‘ziga xos hukm, unda ta’riflanadigan tushuncha aynan o‘zi vositasida ta’riflanadi, ya’ni ta’rifning aniqlovchi qismi aniqlanuvchi qismida ifoda etilgan ma’noni takrorlaydi. Natijada mazmun bir xil bo‘lib qolaveradiyu, uni ifodalagan so‘zlar esa turlichay bo‘ladi. Tushunchalarni to‘g‘ri ta’riflash — mantiqiy talablardan biri. Ta’riflanayotgan tushuncha o‘zi bilan

³¹Boboyeva A. Gazeta tili haqida. - Toshkent: Fan, 1983, 20-b.



emas, boshqa tushunchalar bilan ifodalanishi va tushunchaning mohiyati ochib berilishi lozim. "Odam insoniy xislatlarga ega bo'lishi lozim", "tobi qochgan odam kasaldir" kabi ta'riflarda qaytariq mavjud. Shunday qaytariq mantiqda tavtagoliya deb ataladi. Tavtagoliya jumla tarkibida bir xil yoki o'zakdosh so'zlarning qo'llanilishi, -deb qisqacha xulosa etsak bo'ladi.⁴

Masalan, "Hurriyat" gazetasida chop etilgan "Vaqtni behuda o'tkazmang" sarlavhali maqolada (22.04.2015) "vaqt" so'zi 12 marta takrorlangan.⁵

Balki bu holat gapda faqat sinonimlarni emas, omonimlarni, ko 'p manoli so'zlarni keltirganda ham kuzatilgan jumlali maqolalarni uchratish mumkin. Masalan, "Hurriyat" gazetasining (2021/07/28/) sonida "nashrga berilgan "Xayrli hamkorlik" maqolasidagi bir jumlanı ko'rib chiqsak :

"Tadbirlarda taqdimotlar va ko'rgazmalar shaklida taqdim etilgan mamlakatimizda olib borilayotgan siyosiy, huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar to'g'risidagi ma'lumotlar aholining xabardorligini oshirishga xizmat qiladi".

Endi birinchi o'rinda jumlaning mazmuniga e'tibor qaratsak, chunki mazmun aniq nimaga qaratilganligida ham g 'alizlik bor . Gap boshida kelgan "taqdimot" va "taqdim etilgan" so'zları ham o'zakdosh ham omonim so 'zlar bo'lgani uchun bir marta o'qiganda tez ma'noni anglash, urg'u nimaga qaratilganligini esa tushunish biroz qiyinroq bo'lishi mumkin. "Taqdimot" va "taqdim etmoq" so'zları boshqa- boshqa so'z turkumida bo'lsa-da bir xil ma'noni yuzaga chiqarish uchun ishlataligan. Bu yerda gapni quyidagicha bersak biroz to'g'ri bo'lardi, mening fikrimcha; "Tadbirlarda taqdimot va ko 'rgazmalar orqali ma'lumot berilgan, mamlakatimizda olib borilayotgan siyosiy, huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar aholini xabardorligini oshirishga xizmat qiladi." Gap mana shu shaklda berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki gapning zamoni aniq bo'lsa, gap mazmuni ham aniq bo'ladi.

Stilistik vosita sifatida leksik takrorlar ko'pincha mualliflar tomonidan matnni yanada ifodali qilish uchun ko'proq she'riy nutqda qo'llaniladi.

Leksik takror nasr va folkorda ham uchraydi. Bu o'quvchi e'tiborini biron bir voqeя yoki tafsilotlarga jalb qilish uchun ishlataladi.

Qaytariqlarni nafaqat qo'shma gaplarda, balki sodda yoyiq gaplarda ham kuzatish mumkin. Bu holat gazetada chop etilgan maqola qiymatini tushirib yuboradi, jurnalist so'z boyligi haqida salbiy taassurot qoldiradi. Afsuski, qaytariqlar milliy nashrlarimiz sahifalarida tez-tez uchrayotgan kamchiliklardan biri. Xususan,

[⁴<https://uz.wikipedia.org/wiki/Tavtagoliya>]

[⁵Gazeta – haqiqat ko'zgusi(?) Mohloroyim Qayumova talaba]

[⁶"Hurriyat" gazetasi. 2021//07/28/ / soni]



quyidagi misollarda tavtologiya yaqqol ko‘zga tashlanadi: “*Biz bugun bog‘larning bog‘ bo‘lishida muhim o‘rin tutgan suv masalasida qisqacha to‘xtalmoqchimiz*” (“Ma’rifat” gazetasi, “Noyob topilma”, 16.05.2015). “*Ayni kunda televizor beminnatbolani voyaga yetkazishda ota-onalarning beminnat yordamchisiga aylangani sir emas*” (“Hurriyat” gazetasi, “Qush tilini qush biladi”, 11.02.2015)

Maxsus pleonazm hodisasiga e’tibor qaratilgan ish N.Mahkamovning “Adabiy norma va pleonazm” nomli tadqiqotidir. Olim o‘zbek tilida uchraydigan affiksal pleonazmlarni ikki turga bo‘lib o‘rganadi: distant va kontakt holatda joylashib pleonastik qo‘llanishiga ko‘ra pleonazmlar. Shuningdek, leksik-affiksal pleonazmlarni ham misollar bilan tahlil etadi. O‘zbekcha va o‘zlashma so‘zlarining pleonastik qo‘llanishi ham olim nazaridan chetda qolmagan. Keyingi yillarda ham bir qator olimlarimizning tadqiqotlarida ortiqchalik tamoyili o‘rganilgan. Jumladan, R.N.Yusubovaning “Hozirgi o‘zbek poeziyası lisoniy tejamlilik va ortiqchalik tamoyili” nomli nomzodlik dissertatsiyada ham tavtologiya va pleonazm hodisalari to‘g‘risida ilmiy qarashlar bayon etilgan. Shuningdek, tejamkorlik va ortiqchalik tamoyili yoritilgan yana bir ilmiy ish sifatida F.E.Ibragimovaning “Badiiy matnda ellipsis va antiellips” nomli dissertatsiyani ko‘rsatish mumkin.⁷

Pleonazm (yun. *pleonasmos* — ortiqchalik) — bir xil yoki sinonimik ifoda vositalarining (til birliklarining) semantik jihatdan takror holda qo‘llanishi. Pleonazm tejamlilik prinsipiiga zid hodisadir. Biroq shunga qaramay u uslubiy vazifa bajarishga asoslanadi. Pleonastik qo‘llanish uchun shakliy takror asosiy mezon bo‘la olmaydi, balki mavjud ma’noning qayta takrorlanishi asosdir.

Agar sinonim yoki semantik jihatdan yaqin bo‘lgan so‘zlar leksik birlik sifatida birikib, o‘zaro aniqlovchi — aniqlanmish munosabatida bo‘lsa, ular leksik pleonazmlar hisoblanadi: ko‘ppak it, tuz namak, interval oralig‘i, mayda mikroblar kabi. Bunday tavtologik xarakterdagи pleonazmlar ko‘pincha o‘zlashma so‘zning ma’nosini to‘la anglamaslik yoki hisobga olmaslik natijasida unga shu so‘zning o‘zbekcha sinonimini qo‘sish tufayli vujudga keladi. Ba’zi leksik pleonazmlarda aynan bir tushunchaning takrori mavjud bo‘lsa-da, o‘zlashma so‘z semantikasida ma’no siljishi ro‘y beradi: bosh-oyoq sarpo (forscha "sar-po" — bosh-oyoq), lahm go‘sht (arab. "lahm" – go‘sht).

Misol uchun, “Hurriyat” gazetasining 2020/06/17 sonida Ma’rufa Soliyevaning “O‘zbek brendi dunyo kezadi” nomi ostida nashrga berilgan maqolasidagi jumlanı olsak:

[⁷Yusubova R.N. Hozirgi o‘zbek poeziyasida lisoniy tejamlilik va ortiqchalik (A.Orlov lirkasi misolida). F.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.-2011.]



“Har bir ishga mehr bilan, bor imkoniyatlarni ishga solib harakat qilinsa, natija beradi, samara beradi.”⁸

Mazkur gapda “ishga” bo‘rttirilib ikki marta qo‘llanganib bir g‘alizlik bo‘lsa, “natija bermoq” va “samara bermoq” so‘zlarini bitta ma’noni anglatib o‘rinsiz takror qo‘llangan natijada pleonazm vujudga kelgan. Bu yerda “ishga” so‘zini ikki martalab qo‘llamasdan yoki “natija bermoq” va “samara bermoq” so‘zlarini ketma-ket ishlatmasdan ham jumlanib boshqacharoq tarzda ifodalab shu mazmunni chiqarish mumkin edi.

Yani : “Har bir ishda mehr va bor kuch-g‘ayratimiz bilan harakat qilsak, natijasi yaxshi bo‘ladi” kabi.

Adabiyotlarda sintaktik va semantik pleonazmalarham mavjudligi takidlangan. Sintaktik pleonazm nutqning xizmat qismlarining haddan tashqari ishlatalishi natijasidir. Semantik pleonazm ko‘proq uslub va grammatikadan foydalanish masalasidir. Tilshunoslar sintaktik pleonazm bilan chalkashmaslik uchun uni ko‘pincha ortiqcha deb atashadi. Gazeta va jurnallarda semantik pleonazm, ba’zi o‘rinlarda esa sintaktik pleonazmham keng tarqalgan. Masalan , oyoq bilan tepmoq, ko‘z bilan ko‘rmoq, qari chol, maxfiy sir kabi (tepish oyoq orqali, ko‘rish ko‘z orqali sodir bo‘lishi; chol bo‘lgach, uning qariligi, sir bo‘lgandan keyin maxfiyligi aniq narsa). Ammo biz bu kabi semantik pleonazm hodisalarini yoki semantik ortiqchaliklarni nutqda ta’sirchanlikni, ta’kidni oshirish maqsadlariga xizmat qiladi, -deb qarasak bo‘ladi. Chunki biz bu orqali mavzuni tezroq va chuqurroq anglashimiz mumkin, tabiiyki. “Marifat “gazetasining 23 / 05 / 2023 sonida nashrga berilgan “sifatli ta’lim: Kaliforniya tajribasidan misollar” maqolasidan bir nechta jumlalarni misol qilsak; “Ma’lumki, deyarli har bir o‘quvchi bolaning qo‘lida smartfon bor.”, yani “o‘quvchilarining” emas “o‘quvchi bolaning” deyilganligining asosiy sababi, ma’lum yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilar nazarda tutilgan, bilamizki yosh bola bilan o‘smir yoshdagi bolaning farqi bor. Shu sabab muallif bu tarzda so‘zni aniqroq ko‘rsatishga harakat qilgan . Yoki yana bir gapni olsak, “Kitobning elektron shaklini qo‘lingizdagi smartfonda bepul o‘qish imkonini beradigan yana “Sora” nomli dastur(ilova, programma) mavjud(<https://www.overdrive.com/apps/sora/>). Bu dasturni asosan maktab va oliy ta’lim muassasalarining kutubxonalari o‘quvchilarga kitob berishda qo‘llashadi.” Bu o‘rinda ham “dastur “ so‘zining ketma-ket ikkita ma’nosini qavs ichida berilgan va mazkur dasturning yo‘naltiruvchi smart programma ekanligi

[⁸“Hurriyat “ gazetasining 2020/06/17 soni //Ma’rufa Soliyeva// “O‘zbek brendi dunyo kezadi”]



taakidlangan. Muallif fikrini har tomonlama, turli xil aholi qatlamiga ham tushunarli bo‘lishini istagan.

Pleonazmning affiksal pleonazmlar deb nomlangan turi qo‘sishimchalarining takrorlanishi natijasida vujudga keladi: kuylashaylik kuylaylik, ko‘kimirroq (-imtir va roq), singlisi (-i va -si) va boshqa leksik-affiksal pleonazmlarda o‘zak-negiz anglatgan ma’no qo‘sishimcha orqali yana takror ifodalanadi. Masalan, to‘qayzor, o‘rmonzor so‘zlarining o‘zagida o‘rin ma’nosи ham, jamlik ma’nosи ham anglashiladi. Kulolchi, omborxona, yotoqxona so‘zlarida ham pleonastik qo‘llanish kuzatiladi. Bunday hollarda pleonastik qo‘llanishga hojat yo‘q. Til doimo o‘ta aniqlikka intilar ekan, unda ortiqchalikning yuzaga kelishi tabiiydir. Ortiqchaliklar esa ko‘pincha uslubiy vazifa uchun xizmat qiladi.⁹

Xulosa. Sinonimlardan foydalanmaslik u yoki bu so‘zning ko‘p marotaba takrorlanishi, pirovardida maqola ichki leksikonining haminqadar bo‘lishiga olib keladi.

Biror kishining nutqida asossiz takrorlarning mavjudligi ko‘pincha uning so‘z boyligi pastligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, bu uning nutqida sinonimlardan qanday foydalanishni bilmasligini ko‘rsatadi. Albatta, ba’zi iboralar nutqimizga shunchalik chuqur singib ketganki, biz ular bilan so‘zlarni takrorlashi haqida o‘ylamaymiz.

Nutqingizdagи ma'nosiz gaplardan xalos bo‘lish uchun badiiy asarlarni tez-tez ko‘proq o‘qish tavsiya etiladi. Shuningdek, jumlalarni tarjima qilishni o‘rganining. Sinonim so‘z va iboralarni tez-tez ishlatishga harakat qiling. Agar ma'lum bir til birligining sinonimini topish qiyin bo‘lsa, lug'atga murojaat qiling. Bugungi kunda so‘z boyligini oshirish uchun chet tillarini o‘rganishga ham katta e’tibor qaratish kerakligini olimlar bot-bot ta’kidlashmoqda. Bu bilan biz ham o‘z tilimizning imkoniyatlarini, so‘z boyligini boshqa tillar orqalisolishtirib o‘rganamiz. Bu esa bizga nutqimiz go‘zal hamda yozgan yozma ishlarimiz, maqolalarimiz, ijod mahsulimizning betakror bo‘lishida katta yordam beradi. Bizni o‘rinsiz takrorlar va noto‘g‘ri, ma’nosи bir-biriga mos bo‘lmagan so‘zlardan matn yaratib xatoliklarga yo‘l qo‘ymasligimiz bu tavsiyalar juda muhim.

Adabiyotlar:

1. Yusubova R.N. Hozirgi o‘zbek poeziyasida lisoniy tejamlilik va ortiqchalik (A.Oripov lirikasi misolida). F.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.-2011.
2. Gazeta – haqiqat ko‘zgusi(?) Mohloroyim Qayumova talaba

[⁹<https://uz.wikipedia.org/wiki/Pleonazm>]



3. I.Toshaliyev, R.Abdusattorov “Ommoviy axborotning tili va uslubi”. O‘quv qo‘llanma. T-2006
4. Aysha Matniyozova“Hayotga mehrni aritmas ne’mat”. “Sharq yulduzi” .2021// 8-soni
5. Boboyeva A. Gazeta tili haqida. - Toshkent: Fan, 1983, 20-b.
6. Abdusaidov A. Gazeta janrlarining til xususiyatlari. Filol. Fan. Dokt.dis.avtoref.- Samarqand, 2005, 17-b.
7. Boboyeva A. Gazeta tili haqida. - Toshkent: Fan, 1983, 35-b.

